

AQIDAPARASTLIK VA EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARNING ROLI

Tursunmurod Doniyorovich Mamatqobilov

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari

Akademiyasining Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasida dotsenti,
siyosiy fanlar nomzodi

Annotatsiya: Har bir soha vakillarini faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lgan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog'liq asosiy vazifalari hamda hamkorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: aqidaparastlik, terrorizm va ekstremizm, ichki ishlar organlari, bir qator xizmatlarining asosiy faoliyat yo'nalishi, vatanparvarlik.

Bugungi kunda aqidaparastlik, terrorizm va ekstremizm balosiga qarshi kurashish ichki ishlar organlarining bir qator xizmatlarining asosiy faoliyat yo'nalishi sifatida belgilangan.

Har bir soha vakillarini faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lgan terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog'liq asosiy vazifalari hamda hamkorligini tashkil etish tartibi IIVning tegishli normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab qo'yilgan. Ichki ishlar organlari terrorizm va diniy ekstremizm bilan bog'liq faoliyatini samarali tashkil etish hamda ushbu yo'nalishda ijobiy natijalarga erishish maqsadida huquqni muhofaza qiluvchi organ xizmatlari bilan hamkorlik qiladi. Terrorizm va diniy ekstremizm bo'yicha faoliyatni amalga oshirishda ichki ishlar organlarining boshda sohaviy xizmatlari bilan hamkorligini tashkil etish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, ularning mazkur hamkorligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, huquqni muhofaza qilish organlarining normativ-huquqiy hujjatlari talablari asosida tashkil etiladi.

Terrorizmga qarshi kurash sohasiga e'tibor bersak, xalqaro hamkorlik bir necha yo'nalishlarda amalga oshirilayotganligini ko'ramiz. Davlatlar ham jamiyati uchun xavfli va noqonuniy deb belgilangan jinoiy xatti- harakatlar kim tomonidan va qayerda sodir etilganligidan qat'iy nazar, terroristik harakat deb tan olinadi. Chunki bu xavf bir emas, ikki va undan ortiqroq davlatlar manfaatiga daxl qiladi, ya'ni bunday xatti-harakatlar chet davlatlar hududida sodir etilsada, boshqa davlatlarning fuqarolari ham ularning qurbonlariga aylanmoqda.

Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda keng ko‘lamli hamkorlikni samarali ta‘minlash uchun mazkur hamkorlikni tashkil etish, muvofiqlashtirish va boshqarish talab etiladi.

Zero, Prezident Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Hozirgi vaqtda dunyoda turli kuchlar o‘rtasida qarama – qarshilik va ziddiyatlar kuchaymoqda, resurslar uchun shavqatsiz kurash kechmoqda. Mintaqamizdagi tinchlik va xavfsizlikka nisbatan yangi – yangi tahdidlar paydo bo‘lmoqda”[1, b.371].

Normativ-huquqiy hujjatlarda belgilanganidek, tuman, shahar miqyosida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari o‘rtasidagi, shuningdek, ularning jamoatchilik bilan hamkorligini tashkil etish, muvofiqlashtirish va boshqarish quyidagi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi:

- a) hamkorlikni boshqarish – tuman, shahar ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) boshlig‘i va uning o‘rinbosarlari tomonidan;
- b) hamkorlikni muvofiqlashtirish – tuman, shahar ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash (T va EQK) Boshqarmasi bo‘limi (bo‘linmasi) boshlig‘i tomonidan;
- v) hamkorlikni tashkil etish – T va EQK bo‘limi katta tezkor vakillari tomonidan.

Tuman, shahar miqyosida T va EQK borasida keng ko‘lamli hamkorlikni boshqarish uchun eng yuqori turuvchi mas‘ul shaxs – ichki ishlar bo‘limi (boshqarmasi) boshlig‘i hisoblanadi.

T va EQK negizidagi hamkorlikni boshqarish – bu vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan T va EQK negizida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari xodimlari o‘rtasida va ular bilan jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlikni tashkiliy-metodik, huquqiy, moddiy-texnikaviy ta‘minlashga doir ijroiya-farmoyish berish faoliyati hisoblanadi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, T va EQK xizmat ko‘rsatadigan hududning chegaralari va ularda xizmat qiladigan tezkor (katta) vakillari shahar, tuman IIB boshlig‘i tomonidan mazkur shahar yoki tuman hokimlari bilan kelishilgan holda mahalla hududlari miqyosida belgilanadi.

Tezkor (katta) vakillar tomonidan tuzilgan oylik ish rejasi shahar, tuman IIB boshlig‘i yoki uning birinchi o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

T va EQKning hamkorlikdagi faoliyati har oyda, chorakda, yarim yil va yil yakuni bo‘yicha shahar, tuman IIB boshlig‘i yoki uning o‘rinbosarlaridan birining huzuridagi yig‘ilishlarda muhokama qilinib boriladi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida bu boradagi ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida aniq chora-tadbirlar belgilanib boriladi.

Mazkur yigʻilishlarda hamkorlikda terrorizm bilan bogʻliq jinoyatchilikka qarshi kurash va oldini olish boʻyicha amalga oshirilgan ishlar bilan birgalikda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar hamda hamkorlik jarayonida muntazam ravishda xizmat intizomini buzgan, belgilangan marshrutlardan ketib qolgan va past koʻrsatkichlarga erishgan, yordamga kelgan xodimlar toʻgʻrisida tezkor (katta) vakil axborot beradi va zarur hollarda hamkorlik mobaynida xizmat intizomini qoʻpol ravishda buzgan xodimlarga nisbatan ularni intizomiy jazolash, kerak boʻlsa, egallab turgan lavozimlaridan ozod qilish toʻgʻrisida asosli takliflar kiritadi.

Tuman, shahar ichki ishlar boʻlimi (boshqarmasi) boshligʻining T va EQK faoliyatini, ularning negizidagi keng koʻlamli hamkorlikni boshqarishidagi muhim jihati u mazkur faoliyat yoki hamkorlikni samarali tashkil etish va takomillashtirish, aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tashkiliy-metodik va moddiy-texnikaviy xususiyatga ega boshqaruv qarorlarini qabul qiladi va ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Bu esa T va EQK faoliyatini va ular negizidagi keng koʻlamli hamkorlikni boshqarishning ajralmas qismi boʻlgan – huquqiy taʼminlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, T va EQK tezkor (katta) vakili lavozimiga tayinlangan xodim tomonidan xizmat hududini qabul qilish va topshirish shahar, tuman ichki ishlar idorasi boshligʻi, uning birinchi oʻrinbosari yoki T va EQK boʻlinma boshligʻining bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Tuman, shahar ichki ishlar boʻlimi (boshqarmasi) boshligʻi aksariyat hollarda T va EQK negizida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari xodimlarining oʻzaro hamkorligini, qolaversa ularning jamoatchilik bilan hamkorligini oʻzining oʻrinbosarlari orqali boshqaradi.

Tuman, shahar ichki ishlar organlari tizimida T va EQK negizidagi tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish, sodir etilgan jinoyatlarni ochish, qidiruvdagi shaxslarni aniqlash va qoʻlga olish, terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash, xususan, shu maqsadda tezkor tadbirlarni amalga oshirish kabi yoʻnalishlardagi keng koʻlamli hamkorlik ichki ishlar boʻlimi (boshqarmasi) boshligʻining birinchi oʻrinbosari tomonidan boshqariladi.

Davlat organlari va nodavlat tashkilotlarining vakolatlari. Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarida belgilanganidek, T va EQK negizidagi hamkorlikni boshqarish borasidagi asosiy masʼuliyat tuman, shahar ichki ishlar boʻlimi (boshqarmasi) boshligʻining profilaktika xizmatiga rahbarlik qiluvchi oʻrinbosari zimmasiga yuklatilgan.

Terrorizm va ekstremizm jinoyatni ochishda turli yoʻnalishda ishlayotgan agentura imkoniyatlaridan foydalanish taqozo etiladi. Shuning uchun ushbu holatda

ayrim bo‘linmalar o‘rtasida chambarchas hamkorlikni ta‘minlash zaruriyati vujudga keladi. Boshliq terrorizm va ekstremizm jinoyatlarini ochishda hamkorlikni tashkil etar ekan, uning hal etishi kerak bo‘lgan eng muhim masalalardan biri o‘zaro axborot almashish tizimini tashkil qilish hisoblanadi. U zarurat yuzasidan va hamkorlik qiluvchi xizmat va bo‘linmalarining so‘roviga binoan axborotni taqsimlash bo‘yicha o‘ziga xos dispetcherlik nuqtasi bo‘lib xizmat qiluvchi mavjud muayyan axborot markazi (banki)ni ifodalaydi. Vazifa ma‘lumotlar bankida bo‘lgan axborot turlari bilan xizmat va bo‘linmalarining tanishuvini ta‘minlash uchun: axborot to‘plamini yangi ma‘lumotlar bilan doimiy ravishda to‘ldirib borish; manfaatdor xizmatlarning so‘rovlariga binoan ular uchun zarur ma‘lumotni o‘z vaqtida berishdan iborat. Shu maqsadda xizmat va bo‘linmalarga navbatchilik qismlaridan tegishli axborotni jo‘natish va olish tartiblarini belgilash, hujjatlarning (so‘rovlar, axborot tashuvchilar) tegishli shakllarini ishlab chiqilishini ta‘minlash; mavjud hujjatlarga (namunaviy rejalar, hisob-kitoblar va boshqalar) o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kiritilishini ta‘minlash lozim. O‘zaro axborot almashuvning bunday tizimini tashkil etish hamkorlik qiluvchi xizmat bilan o‘z vaqtida zarur axborot almashuvini ta‘minlashga imkon beradi, jinoyatni ochish va jinoyatchini qidirishni yengillashtiradi.

Boshliq tomonidan issiq izlar bo‘yicha ishlash orqali jinoyatni ochishni tashkil etish shu bilan yakunlanmaydi. U mazkur ish sohasini ta‘minlashning barcha, ya‘ni jinoyat ishini sudga jo‘natishgacha bo‘lgan bosqichlarigacha shaxsan javobgarlikni zimмага oladi. Agar jinoyat sodir etilganidan keyin dastlabki kunlarda uni ochishning iloji bo‘lmasa, boshliq ehtimol tutilgan har qaysi tushmol bo‘yicha kompleks choralar ko‘rilishini ta‘minlashi, ilgari ishlab chiqilgan rejalarining bajarilishi natijalarini tanqidiy baholashi, qo‘shimcha tergov va tezkor-qidiruv chora-tadbirlarini belgilashi va amalga oshirishni tashkil etishi; ularning bajarilishini muntazam nazorat qilishi lozim.

Ayniqsa, boshliqning jinoyatlarni keyingi bosqichlarda ochishni tashkil qilish bo‘yicha faoliyati vaqt omili bilan ifodalanadi. Shuningdek, xodimlarning yangidan sodir etilgan jinoyatlarni ochish bo‘yicha ishlashi bilan ham ahvol murakkablashadi. Ta‘kidlash joizki, bo‘linmalarining faoliyatiga, avvalo, o‘tgan yillarda ro‘yxatga olingan ochilgan jinoyatlar soniga qarab baho beriladi. Statistik hisobotlarda o‘tgan yillar davomida jinoyatlarning ochilishi ko‘rsatkichlariga alohida qator (grafa) ajratilganligiga qaramay, amaliyotda bu aslida hisobga olinmaydi va ichki ishlar idoralarining ishlariga umumiy baho berishga ta‘sir ko‘rsatmaydi. Bunday sharoitda tabiiyki, xodimlarning jinoyatlarni ochishdagi

faolligi tushib ketadi, ular ochilmay qoladi va bunday turdagi jinoyatlar miqdori o'sib boradi.

Terrorizm va ekstremizm jinoyatlarini ochishning mazkur bosqichida xizmat va bo'linmalarning hamkorligini tashkil etishda boshliq o'tgan davrdagi chora-tadbirlarning vorisiyligini, hamkorlikning tashkiliy shakllarini ta'minlashi kerak. Hamkorlik ishtirokchilarining asosiy sa'y-harakatlarini sodir etilayotgan (sodir etilgan) jinoyat va unda ishtirok etgan shaxslarning holatlari to'g'risida axborot izlashga qaratishi kerak. U yoki bu chora-tadbirni amalga oshirish tashabbusi jinoyat ishi yurituvda bo'lgan tergovchidan kelib chiqishi kerak. Bu boshliqning o'zi mazkur tashabbusni taklif etmasligini bildirmaydi.

Agar jinoyat sodir etgan shaxs aniqlangan bo'lsa, hamkorlik tamom bo'lmaydi. Hamkorlik ishtirokchilarining vazifalari bu sharoitda har tomonlamalik kasb etib, jinoyat ishi bo'yicha isbotlash predmetini ta'riflaydigan barcha holatlarni to'liq aniqlash, jinoyatning barcha ishtirokchilarini aniqlash va fosh etish, ular jinoiy faoliyatining barcha ko'rinishlarini isbotlashdan iborat bo'ladi.

Hamkorlik tergov yakunlanguniga qadar uzluksiz bo'lishi lozim. Hamkorlikdagi tergov harakatlari va tezkor-qidiruv chora-tadbirlarining jadalligini erishilgan natijalarni hisobga olgan holda boshqarish taqozo etiladi. Hamkorlik ishtirokchilari tomonidan jinoyatni ochish bo'yicha uzil-kesil choralar amalga oshirilganidan keyin tergov-operativ guruhi rahbarining taklifiga muvofiq hamkorlikni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Jinoyatlarni ochishda hamkorlikni tashkil etish vaqtida birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarining sa'y-harakatlari ochilmagan jinoyat ishlari bo'yicha ma'lumot yig'ish, tizimlashtirish va to'plash, JIB operativ apparatlari xodimlari bilan aloqa o'rnatish va ularning imkoniyatlaridan foydalanish, jamoatchilik vakillaridan foydalanish, ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlarini ishga solish va hokazolar bo'yicha kompleks choralarni amalga oshirishga qaratiladi. Bu maqsadda maxsus operativ guruh tuziladi va u bunday jinoyatlarni ochish bo'yicha asosiy tashkiliy bo'g'in hisoblanadi.

Bunday guruhlar tarkibining barqarorligi, ular tomonidan bajariladigan ishlarning bir turdaligi, guruh har bir a'zosining faoliyati rejalashtirilishi, ularning faoliyati ustidan doimiy nazorat, amaliy va metodik yordam ko'rsatilishi ta'minlanishi kerak.

Maxsus tezkor-tergov guruhining JIB, tergov hibsonasi (TH), vaqtincha saqlash xonasi (VSX), rehabilitatsiya markazlari operativ xizmatlari bilan hamkorlik ijobiy natija beradi. Shuningdek, o'xshash jinoyatlar bo'yicha arxivda bo'lgan

jinoyat ishlari qiziqish uygʻotuvchi boshqa axborotlarni oʻrganishni taʼminlash ham muhimdir.

Maxsus ixtisoslashgan tezkor-tergov guruhi aʼzolarining hamkorligini taʼminlashda jinoyat, ochilmagan jinoyatlar (jinoyatlar turi, ularni sodir etish joyi va usuli, jinoiy tajovuz predmeti, jinoyatni yashirish usullari va sh.k.) tahlil qilish muhim oʻrin egallaydi.

Qidiruv ishlari jinoyatchilikka qarshi kurashishning ajralmas qismi hisoblanadi. Izlab topilmagan jinoyatchilar ichida xavfli jinoyatchilar salmoqli oʻrin egallaydi va ushbu yoʻnalishdagi faoliyatda jiddiy kamchiliklar mavjudligini qayd etish joiz. Bunday holatlarning sabablaridan biri joylarda tashkilotchilik ishlarining sust tashkil etilganligidir. Ichki ishlar idoralari shahar-tuman rahbarlari jinoyatchilarni qidirishga kam eʼtibor beradilar, yomon qidiruv sabablarini chuqur oʻrganmaydilar, jinoyatchilarni qidirishda kuch va vositalardan har tomonlama foydalanishni, ularning kerakli darajada hamkorligini taʼminlamaydilar.

Yashiringan jinoyatchini qidirishda barcha xizmat va boʻlinmalar ishtirok etishlari kerak. Bu ishlarni tashkil etish shahar-tuman boshliqlari zimmasiga yuklatilgan. Aynan ular koʻrsatilgan organlarning kuch va vositalaridan keng foydalanilishini taʼminlashlari kerak. Ular zimmasiga bu kuchlarning hamkorligini tashkil etish, shuningdek, muayyan ichki ishlar idoralari bilan hamkorlik (yuqori turuvchi rahbarlarning roziligiga koʻra) majburiyati yuklatilgan.

Qidiruv ishlarining asosiy hajmi T va EQK boʻlinmalari tomonidan amalga oshiriladi. Shuning uchun hamkorlikni tashkil etishda ular odatda, hamkorlikda u yoki bu qidiruv tadbirini amalga oshirishda masʼul etib tayinlanadilar.

Shahar-tuman boshliqlari hamkorlikni tashkil etishda qidiruvda hamkorlik qiluvchi tomonning har biriga xos boʻlgan imkoniyatlardan ishning turli shakl va usullarida samarali foydalanishni taʼminlashi, ularga amaliy yordam koʻrsatishi, qidiruv chora-tadbirlarining amalga oshirilishi ustidan doimiy nazorat olib borishi, qidiruv ishlarida ilgʻor tajribalarni oʻrganish va yoyishi kerak.

Bunday hamkorlikni tashkil etish shakllarini tanlash qidirilayotganning sodir etgan jinoyati xususiyatlari, uning shaxsi qochishi holatlari, hamkorlik ishtirokchilarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Har qanday holatda ham hamkorlik ishtirokchilarining eʼtibori va saʼy-harakatlari: qidirilayotganning turmush tarzi va xulq-atvori, uning qarindosh-urugʻlari va tanishlari hamda u munosabatda boʻlgan yoki uning yashirinishiga koʻmaklashgan shaxslarni aniqlash va oʻrganish; uning paydo boʻlish ehtimoli boʻlgan joylarda ushbu manzilga kelib-ketuvchi shaxslarni qayd etish, qidirilayotganning tashqi koʻrinishi belgilari, fotosurati yoki shaxsiga xos xulq-atvor belgilari boʻyicha tanib

olish maqsadida doimiy operativ kuzatuvni amalga oshirish; uning ilgari yashayotgan joyi hamda uning qarindoshlari va boshqa yaqin kishilari yashaydigan joylarda yashirin yoki niqoblangan tekshiruvlar o'tkazish; qidirilayotgan shaxs paydo bo'lishi ehtimol tutilgan joylarda kuzatuvni amalga oshirish; qidirilayotganning qarindosh-urug'lari va tanishlariga uning aybini bo'yniga olib kelishiga ko'ndirish maqsadida ta'sir ko'rsatish; mavjud hisoblar bo'yicha tekshiruv o'tkazish va hokazo.

O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuniga asosan (2004-yil 30-aprel kuni mazkur qonunga o'zgartirishlar kiritildi va 2004-yil 6-iyulda kuchga kirgan qo'shimchalari bilan).

6-modda. Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko'maklashish.

Davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, shuningdek, fuqarolar terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlariga ko'maklashadilar va zarur yordam beradilar.

7-modda. O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi xalqaro hamkorligi.

Terrorizmga qarshi kurash sohasida O'zbekiston Respublikasining chet el davlatlari bilan, ularning huquqini muhofaza qiluvchi organlari, maxsus xizmatlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishiga aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

8-modda. Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha davlat organlari.

Terrorizmga qarshi kurashni amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;
- O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati;
- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi;
- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.

Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish hamda terrorchilik faoliyatining oldini olish, uni aniqlash, unga chek qo'yish va uning oqibatlarini minimallashtirish borasida hamkorlikda harakat qilishlarini ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish faoliyatida qonuniylik, fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash; doimiy tezkor shaylik; o'tkazilayotgan tadbirlarni maqsadli hamda samarali amalga oshirish; oshkora va nooshkora tezkor-qidiruv kuch, vosita va tadbirlarini samarali va kompleks tarzda o'tkazish; boshqa vazirlik, idora, korxonalar, muassasa, tashkilotlar va jamoatchilik bilan yaqindan hamkorlik qilish printsiplariga qat'iy rioya qilgan tarzda amalga oshiriladi

Bugun dunyoning ko'plab davlatlari turli ko'rinishdagi jiddiy muammolarga duch kelayotgan bir vaziyatda yurtimizda mustaqillikning o'tgan o'ttiz ikki yili davomida, ayniqsa Yangi O'zbekiston sharoitida muhtaram Yurtboshimiz tomonidan barcha sohalarda izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida xalqimiz hayoti kundan kun zamon bilan hamnafaslashib bormoqda. Shu o'rinda Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida: "Inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash – O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biridir. Biz hamma uchun ochiq va sifatli ta'limni kambag'allikka barham berish, xalq farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishishning eng samarali omili, deb bilamiz"[2, b.1-2.], - degan fikrni qayd etdi. Buning mazmuni – mohiyati odamning hayotdagi insoniy omilkorligini va ichki imkoniyatlarini yanada teranroq anglashga chorlashdan iborat. Demak, biz ilimli yoshlarni mukammal tarbiyalash orqali yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun" – T.:O'zbekiston, 2022 - yil.-B.371.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2023-yil 20-sentabr –B.1-2.
3. T. Mamatqabilov, M. Isaeva, N. Vahabov, D. Sayfullayeva SOCIAL AND SPIRITUAL FOUNDATIONS OF PATRIOTISM IN THE NEW

UZBEKISTAN // SAI. 2024. №B1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/social-and-spiritual-foundations-of-patriotism-in-the-new-uzbekistan> (дата обращения: 08.02.2024).

4. Mamatqabilov T. et al. OVERCOMING GLOBAL PROBLEMS AND DEVELOPMENT STRATEGIES //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. B10. – С. 230-234.

5. Sayfullayeva D. D. Q. THE EDUCATIONAL VALUE OF WORKS CREATED ON CHILDREN'S STORIES //Science and Innovation. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 252-257.

**"Innovations in Science and
Technologies"**